

*F.Sh.Xudoyberdiyev*

*“Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrası dotsenti  
Muxamadov Qamoriddin Muxtor o’g’li, Bobojonov Saidjon O’tkirovich*

*Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish magistrarlari*

*Mirzomurotov Maksudjon Farhod o’g’li  
“Yer kadastrı va yerdan foydalanish” ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

## YAYLOV O’SIMLIKLARINING HOSILDORLIGINI ANIQLASH

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yaylovda yetishtiriladigan o’simliklar, ularning biologiyasi va eng muhimi ozuqabobolık xususiyatlari to’g’risida bir qator ilmiy mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Yaylov, o’simlik qoplami, pichanzor, cho’l mintaqalari, ozuqa, yaylov tipi, o’simliklar biologiyasi.

**Kirish.** Yaylov deb o’simlik qoplami uy hayvonlarini boqish uchun mo’ljallangan maydonga aytiladi. Har bir yaylov tipi ma’lum botanik turlar va tarkibdan iborat o’simliklar guruhidan tashkil topgan bo’lib mahsuldor holatda saqlanadi va foydalanishi lozim. Odatda, yaylovlar tabiiy va sun’iy turlarga ajratiladi.

Pichanzor deganda esa o’simlik qoplami ozuqa (pichan) tayyorlash uchun mo’ljallangan yer maydonlari tushuniladi. Ulardan, o’rni kelganda, yaylov sifatida ham foydalanish mumkin. Pichanzorlar ham yaylovlarga o’xshab 2 tur - tabiiy va sun’iy turlarga bo’linadi. Respublikamizda tub ma’noda doimiy tabiiy pichanzorlar maydonlari o’ta kam va ular asosan yaylov, toq mintaqalariga xos.

Biroq ob-havo qulay kelgan yillari adir va cho’l mintaqalarining talaygina maydonlari karrak yantoq, qamish, kavrak, selin, maysa o’t-o’lanlar hisobidan xo’jaliklar o’z ehtiyojlari uchun dag’al pichan tayyorlash amaliyoti keng quloch yoyganligini ta’kidlab o’tmoq joiz. Yaylovlar haqida gap borar ekan, yana bir zarur va muhim tushuncha - yaylov tipini ham bilmoq zarur. Yaylov tipi deb ozuqabop turlar va miqdor jihatdan ma’lum tarkibga ega yaylovlarga aytiladi; har bir yaylov tipi o’ziga xos xususiyat va xossaga ega. Yaylov tiplarining asosiy belgilari sifatida o’simliklar tarkibi, o’simlik qoplaminıng tuzilishi, ular tarqalgan tuproq yuzasi tuzilishi masalalari qabul qilingan. Ta’kidlash joizki, hanuzgacha qorako’lchilik yaylov tiplari borasida umum tan olingan va qabul qilingan tushuncha mavjud emas. Aksariyat xollarda anchagina sodda va amaliyotda tan olingan sobiq Butun ittifoq qorako’lchilik ITI (hozirgi O’zQChEITI) olimlari taklif etgan tiplar qo’llanilib kelinmoqda.

**Tahlillar.** Yaylovlarni boshqarishning asosiy maqsadi ozuqani samarali chorva mollari mahsulotiga aylantirishdir. Tegishli o’tlatish tizimidan foydalanish tuproqning unumdorligini yaxshilashda ishlab chiqarish va xo’jalikdan tashqari xarajatlarni kamaytirishi mumkin.

Yaylovlarni boshqarish vaqtida yaylovlar muammosi yo’qligini aniqlash, aniq muammolar va ularning sabablarini aniqlash uchun muntazam ravishda monitoring o’tkazish, yaylovlarning holati va unumdorligini oshiradi. Kamchiliklarni aniqlaganingizdan so’ng, ularni qanday hal qilish choralari ishlab chiqiladi.

Respublikamizda mavjud yaylov va pichanzorlar maydonlari to’rt tabiiy mintaqada tarqalgan; yaylovlar fondining asosiy qismi (%) cho’l mintaqasiga (-78,1%), adirlarga (-15,2 %) to’g’ri kelsa, tau (4.5%), yaylov (2.2%) maydonlari juda kichik ulushni egallaydi.

Qorako’lchilik yaylovlari yil mavsumlari bo’ylab yaylov ozuqalari to’yimligi ham turli xil bo’lib, turlar va ozuqaviy guruhlarga qarab bir-biridan keskin farq qiladi. Chunonchi, bir yillik va

ko'p yillik o'tlar bahor va yoz oylari eng yuqori (36-48 ozuqa birligi) to'yimlilik ko'rsatkichiga ega bo'lsa, butalar kuz-qish oylari anchagina to'yimli ozuqa manbai hisoblanadi.

Yaylovlarda tarqalgan o'simliklar, ma'lumki turli-tuman hayotiy shakllar, botanik guruhlar va oilalardan tashkil topgan bo'ladi. Ularning to'yimliliigi, oziqabopligi xususiyatlari ham bir xil emas. Shu boisdan o'simliklarni oziqaboplik xususiyatlariga qarab 5 guruhga bo'lish qabul qilingan.

1) Dukkaklilar; 2) G'alladoshlar; 3) Qo'ng'irboshlilar; 4) Turli o'tlar; 5) Zararli va zaharlilar.

Bular orasida dukkaklilar oziqabopligi jihatidan yaxshi va a'lo oziqalar hisoblanadi, g'alladoshlar yaxshi va qoniqarli oziqalar, va turli o'tlar yomon oziqalar (biroq ularning orasida o'z ozuqaviy to'yimliliigi va yeyiluvchanligi jihatidan g'allaadoshlar hatto dukkaklilardan ham yuqori bo'lgan turlar ham mavjud). Har bir guruhining yalpi o'tini baholashda ularni o'z navbatida 2 kichik guruhga ajratilib baholanadi. Bu usulda baholanganda dukkaklilar va g'alladoshlarning birinchi kichik guruhiga osokalar ikkinchi (qoniqarli) guruhga kiritiladi va h.k. Shuningdek, o'simlik qoplami va uning o'sish sharoitining batavsil tahlili mazkur maydonlari kamchilik baholash, shu jumladan, o'simlik holatini yaxshilashga haratilgan yuzaki yoki tubdan yaxshilashga qaratilgan.

**Xulosa.** Yirik shoxli hayvonlar odatda yumshoq, nam, shirin o'simliklarni xush ko'rsa, yilki-otlar quruq, biroz dag'alroq, xidlilarni yoktiradi; tuyalar esa dag'al, tuzlarga boy, xidli o'simliklarni yeydi. Qo'y va echkilar, tuya va otlar yeydigan o'simliklarni bemalol yeydi. Lekin qo'y-qo'zilarning bu turdagi o'simliklarni tualardan farq qilib yeyishidagi shundaki, ular, bu o'simliklarni to'liq, butunlay yemasdan, ko'proq eng yumshoq qismlarini qisman yulib olib yeydi. Yaylovda o'simliklarning yeyiluvchanlik darajasini qanday aniqlash mumkin?

Buning uchun ma'lum maydonda yaylov hosildorligi mol boqishdan oldin va qoniqarli mol boqilgandan keyin aniqlanishi lozim. Mol boqishgacha bo'lgan yaylov hosildorligidan mol boqilgandan keyingi ko'rsatkichni ayirish uning foydalanlik darajasini ko'rsatadi va % hisobida aniqlanadi. Yaylovda bir necha tur ozuqabop o'simlik mavjud bo'lsa, barcha turlarning yalpi yeyiluvchanligini yoki har qaysisini alohida-alohida aniqlash vositasida amalga oshirish mumkin.

**Takliflar:** 1. Yaylov zonasiga qancha hayvonlar kerak - boqish zichligi ajratilgan maydonning qanchalik samarali o'tlanganligini aniqlash.

2. Yaylov zonalarining soni va hajmi-ma'lum yaylovlar, boshqa yaylov uchastkalari dam olishlari va o'sishini aniqlash.

3. Samarali-ozuqaning natijaviy potensialini maksimal darajada oshirish va ozuqa sifati va hosildorligini oshirish.

4. Samarali - o't yoki yem-xashak ekinlarini hayvonlar tomonidan go'ng bilan to'g'ridan-to'g'ri yig'ib olish jarayonida tuproqqa bevosita qaytarish.

5. Yaylovlarni boshqarishni maksimal darajada oshirish uchun doimiy va ko'chma to'siqlar birikmasidan foydalanish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-aprel, 299-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi" 1998-yil 30-aprel (yangi taxrir).
3. O'zbekiston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida"gi qonuni 20.05.2019 y
4. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida milliy hisoboti 01.01.2023 yil.
5. Bobojonov A.R, Rahmonov K.R., Gofirov A. "Yer kadastr". O'quv qo'llanma. T.: TIMI, 2008
6. Yarim cho'l (adir) yaylovlarda oqilona foydalanish va hosildorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar. Qurg'oqchil hududlarda qishloq xo'jaligi tadqiqotlari xalqaro markazi (ICARDA), Qorako'l va cho'l yekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti. Toshkent-2016.
7. Xudoyberdiyev F.Sh. "Yaylovlarni yaxshilash, yangi yaylov barpo etish va yaylovlardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy maqola. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2019-yil 17-20 b.
8. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Measures to prevent degradation of pastoral lands. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 7(3).

9. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtarovich, M. K. (2021). Achieve Effective Results Through Pasture Management. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 3, 9-12.
10. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Development of Effective Methods for the Use of Pasture Land" *International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology*, 7(3).
11. Sh, F. (2020). Khudoyberdiyev Development of effective methods for the use of pastureland. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 7(3).
12. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Научная статья «Улучшение пастбищ, создание новых пастбищ и разработка эффективных методов использования пастбищ». *Вестник Хорезмской Академии Мамуна*, 17-20.
13. Худойбердиев, Ф. Ш., Шарипова, Ф. К., Бобожонов, С. У., & Мухаматов, К. М. (2014). Разработка эффективных методов использования пастбищных земель. *The Way of Science*, 69.
14. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). Innovative approach to rational use of pastures and increasing productivity. In " Online-conferences" platform (pp. 76-78).
15. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). The importance of the cluster system today. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6, 3-3.
16. Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). Зарубежный опыт в области пастбищных территорий, возможности и условия их использования в Узбекистане. *Землеустройство, кадастр и мониторинг земель*, (10), 24-27.
17. Sh, F. (2019). Khudoyberdiyev. Development of methods of pasture improvement, creation of new pastures and effective use of pastures. *Bulletin of the Khorezm Academy of Sciences*, 2-15.
18. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, June). The importance of pasture lands in the development of the livestock sector in uzbekistan. in " online-conferences" platform (pp. 164-166).
19. Худойбердиев Ф. Ш. Меры предотвращения деградации пастбищных земель //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 331-333.
20. Khudoyberdiyev, F. S. (2020). " Measures to Prevent Degradation of Pastural Lands" *International Journal of Advanced Research in Science. Engineering and Technology*, 7(3).